

GENDER ASPEKTIDA INGLIZ VA O‘ZBEK ISMLARINING LINGVA KULTUROLOGIK TAHLILI

Qodirova Guljahon

Uchko’prik tumani 2- son texnikumi ingliz tili o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ismlar, ularning kelib chiqishi, jamiyat hayotidagi ijtimoiylashuvi gender aspect tomonidan o‘rganish ko‘zda tutilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender, ism, o‘g‘il, qiz, lingvakulturologiya, etnolingvistika, sostiolingvistika.*

Bugungi kunda o‘zbek va ingliz ismlarini taqqoslab o‘rganish, sayqallash va tahrirlash lingvistikaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib bormoqda. Zero, har bir millatning go‘zal qadriyatlarini, jahon xalqlaridan ajrab turuvchi qadriyat va aqiydalarini aynan shaxslarga qo‘yilgan simlari orqali ham ochib bermog‘i lozim. Asosan, o‘zbek halqining ism tanlashi tug‘ilgan farzandning o‘g‘il yoki qizligiga bo‘lgan munosabatdan kelib chiqqan qarashlaridan paydo bo‘lgan.

Ma’lumki, gender munosabati har bir til lingvistikasining bir qancha tarmoqlarida xususan, sostiolingvistika, pragmatika, diskurs tahlil, lingvakulturologiya, kognitiv lingvistika, etnolingvistika kabi ko‘plab doiralarida o‘rganiladi. Farzand tug‘ilganda unga ism tanlashdagi muhim va asosiy vazifani oiladagi gender munosabat bajaradi. Ism inson jinsining ijtimoiy – madaniy xususiyatini ifoda etuvchi tushuncha bo‘lib, jamiyatda qaysi jins vakiliga nisbatan munosabat o‘zgarishi qarab ismlardagi gender aspekti ham evrilishga yuz tutadi.

Xususan, o‘zbek millatida II Jahon urishidan so‘ng o‘g‘il bolalarning kam tug‘ilishi va erkak jinsiga mansub insonlarning urush tufayli kamayishi, jamiyatdagi qiz farzandalarning ismlari Ulbo‘lsin, O‘g‘ilbeka, O‘g‘ilbaxt, O‘g‘ilbibibi kabi o‘g‘il tushunchasiga oid ismlarni qo‘yish ommalashgan. Hozir ham ayrim chekka hududlarda, ma’naviy, ijtimoiy va diniy bilimlar yetarli darajada rivojlanmagan joylarda shunday ismlar qo‘yilishi kuzatiladi. Masalan, E. Begmatovning o‘zbek ismlari lug‘atida “O‘g‘il” so‘zi bilan boshlanuvchi 53 ta ism mavjud bo‘lib, ularning izohlarida “bu qutlug‘ qizdan keyingisi o‘g‘il bo‘lsin”, “Alloh o‘g‘il ato etsin”, “bu qizdan keyin o‘g‘il bersin” kabi tilak va umidlar ifodalangan.

Gender muvozanat faqatgina maishiy hayotda emas, balki ijtimoiy mavqe, obro‘, g‘urur kabi his-tuyg‘ular orqali ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli nafaqat otalar, balki onalar ham o‘g‘il farzand ko‘rganlarida o‘zlarini jamiyatda bir pog‘ona yuqoriga ko‘tarilgandek, boshqalardan ustun his etadilar. Chunki o‘g‘il bola qadimdan himoyachi, boquvchi va suyanch sifatida tasavvur etilgan.

Bu fikrlar G.E. Gryunebaumning mulohazalarini esga soladi: “u joxiliyat davrida, ya’ni Islomgacha bo‘lgan Arabiston jamiyatida ayolning na mavqei, na qadri bo‘lgan”ini ta’kidlaydi⁹⁵. O‘sha davrlarda farzandning jinsi tug‘ilishidanoq oila kayfiyatiga ta’sir etgan — o‘g‘il bola dunyoga kelsa quvonch, qiz bola tug‘ilsa esa g‘am va motamsar holat hukm surgan.

⁹⁵ Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (660-1258). М.: 1986. С.13.

Ayolning eri oldidagi qadri ko‘pincha erning mol-mulk darajasiga tenglashtirilmagan. Joxiliyat davrida arab erkaklari ayollar bilan bir xonada o‘tirish yoki ular bilan bir dasturxonda ovqatlanishni pastlik deb bilishgan. U davrda arablar orasida “otda, ayolda va uyda baraka yo‘q” degan e‘tiqod keng tarqalgan edi. Bu kabi ibtidoiy qarashlarning izlari asrlar davomida saqlanib, avloddan avlodga o‘tib kelganini ayrim joylardagi ism tanlash an‘analaridan ham ko‘rish mumkin. So‘zning kuchi va uning psixologik ta‘siri natijasida o‘g‘ilga oid ma‘nodagi ism berilgan qizlar ko‘pincha beixtiyor o‘g‘il bolalarga xos xarakter xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Insonning xulq-atvori va o‘ziga xos fe‘l-atvori, shuningdek, uning ijtimoiy jins sifatida shakllanishi ma‘lum darajada tug‘ilgan paytda berilgan ismi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli jamiyatda “erkaklarga xos” yoki “ayollarga xos” deb hisoblangan sifatlar asta-sekin shaxs va uning atrofidagilar ongida tabiiy va me‘yoriy holat sifatida shakllanadi. Bu kabi tasavvurlar o‘zbek xalqining o‘ziga xos ruhiyati — jo‘shqinlik, jasorat, qat‘iyatlilik va so‘zining o‘tkirliги bilan ajralib turadigan To‘maris yoki Barchinoy singari ayol obrazlariga mos fazilatlar sifatida qaror topadi. Insonning jinsiga mos ijtimoiylashuvi jarayonida esa madaniy muhit muhim rol o‘ynaydi. Chunki aynan madaniyat erkak va ayol qanday fazilat va xatti-harakatlarga ega bo‘lishi lozimligini belgilab beradi⁹⁶.

Khloé Kardashian esa o‘zining farzandlariga “True” va “Tatum” kabi ismlar bergan. “True” so‘zi oddiy inglizcha sifat bo‘lib, rostlik, halollik, samimiylik kabi qadriyatlarni ifodalaydi. Bu kabi sifat so‘zlarining ism sifatida qo‘llanilishi zamonaviy ingliz onomastikasida keng tarqalgan bo‘lib, bu hodisa “lexical onomastics” deb ataladi. Ismning bunday leksik asosga ega bo‘lishi uni ko‘proq simvolik anglatmaga ega qilmoqda: bu ism orqali bola ota-onaning shaxsiy hayotidagi muhim bir turning yoki hissiy tajribaning ifodasi bo‘ladi. “Tatum” esa qadimiy kelib chiqishga ega bo‘lib, o‘zida “shodlik”, “jo‘shqinlik” singari ma‘nolarni aks ettiradi. Shu bilan birga, bu nom fonetik va morfologik jihatdan ayol yoki erkak jinsiga yaqqol bog‘lanmagan neytral ko‘rinishga ega.

Umuman olganda, zamonaviy mashhurlar tomonidan tanlangan ismlar orqali biz ism tanlashda fonetik ohang, semantik yuklama, madaniy simvolizm, va shaxsiy emotsional tajribaning qanchalik muhim omillarga aylanganini ko‘rishimiz mumkin. Bu ismlar ko‘pincha jamiyatdagi an‘anaviy gender stereotiplari, fonologik me‘yorlar, va familiya tizimlaridan chetga chiqadi, ularning o‘rniga esa yangicha – ba‘zan esa individualizm, shaxsiy o‘ziga xoslik, brendlash va ijtimoiy ajralish istagini bildiruvchi – onomastik yondashuv paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, bu ism tanlovlari zamonaviy ingliz tili onomastikasi doirasida yangi leksik sinflarni kiritish, fonologik eksperimentlarni qo‘llash, va ismning vizual, auditiv va semantik jihatdan ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Bundan kelib chiqadiki, bugungi ism tanlash tendensiyalari nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liq kompleks fenomen sifatida o‘rganilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES:

Begmatov E. O‘zbek ismlari izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 656 b.

⁹⁶ Ўразалиева Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. Тошкент: 2009. – 136 б

Грюнебаум Г. Э. фон. Классический ислам. Очерк истории (600—1258) / Пер. с англ. И. М. Диковинской. — Москва: Наука, 1988. — 216 с.